

## 43578- sonli shartnoma

Toshkent sh.

“15” sentabr 2022 y.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi moliya organlari hamda budjet tashkilotlarining moliya-hisob bo‘linmalari xodimlarini tayyorlash va qayta tayyorlash O‘quv markazi (keyingi o‘rinlarda “Buyurtmachi” deb ataladi) nomidan direktori I.G.Xamidova Nizom asosida ish yurituvchi bir tomondan va ikkinchi tomondan “UNIVERSE LANGUAGE GROUP” nodavlat ta’lim muassasasi (keyingi o‘rinlarda “Bajaruvchi” deb ataladi) nomidan direktor T.I.Irbulatov o‘z Ustaviga asosan ish yurituvchi o‘rtasida ushbu shartnomani tuzdik.

### 1. Shartnoma predmeti

1.1. “Bajaruvchi” ushbu shartnomaga muvofiq “Buyurtmachi” ko‘rsatmasiga ko‘ra mazkur shartnomaning 2-bandida ko‘rsatilgan “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining markaziy apparatini barcha departament va mustaqil bo‘limlari, vazirlik tarkibidagi tashkilotlarning tegishli xodimlarini xorijiy (ingliz) tillar bo‘yicha bilim darajasini oshirish yuzasidan o‘quv kurslarini tashkil etish” majburiyatini oladi, “Buyurtmachi” esa haqiqatda bajarilgan ish uchun belgilangan miqdorda xaq to‘lashni o‘z zimmasiga oladi.

1.2. Ko‘rsatilgan xizmatlar belgilangan standartlariga muvofiq bo‘lishi shart.

### 2. Shartnoma bahosi

Nº	Ish, xizmat va tovar nomlari	O‘lchov birligi	Soni	Bir oylik to‘lov narxi (bitta o‘rganuvchi uchun)	Summa	Ish (xizmat) muddati oy	Jami summasi
1	Ingliz tili kurslari	kishi	93	400 000	37 200 000	3	111 600 000
<b>Jami to‘lov uchun:</b>							<b>111 600 000</b>

2.1. Shartnomaning umumiyligi summasi qo‘shilgan qiymat solig‘i bilan 111 600 000 (bir yuz o‘n bir million olti yuz ming) so‘mni tashkil qiladi.

### 3. Shartnoma bahosi va to‘lov shartlari

3.1. Shartnoma summasi qo‘shilgan qiymat solig‘i bilan xizmat ko‘rsatilgan har bir oy uchun 37 200 000 (o‘ttiz yetti million ikki yuz ming) so‘mni, umumiyligi 111 600 000 (bir yuz o‘n bir million olti yuz ming) so‘mni tashkil qiladi

3.2. “Buyurtmachi” shartnomada ko‘rsatilgan narx bo‘yicha umumiyligi summaning 30%ini oldindan to‘laydi. Oldindan to‘langan summaga teng hajmdagi ishlar bajarilgandan so‘ng, qolgan 70% buyurtmaning bajarilgan qismi uchun shartnomada belgilangan narx bo‘yicha hisob-faktura va dalolatnoma asosida qabul qilib olingan kundan 5 bank ish kuni ichida amalga oshirib boriladi.

3.3. Haq to‘lash shakli Moliya vazirligi G‘aznachiligi orqali “pul o‘tkazish” yo‘li bilan amalga oshiriladi. Shartnoma umumiyligi miqdorining 30% miqdorida oldindan to‘lov, shartnoma G‘aznachilikda ro‘yxatdan o‘tganidan keyin 10 bank kuni ichida amalga oshiriladi

3.4. Yakuniy to‘lovlari “Buyurtmachi” va “Bajaruvchi” o‘tasida haqiqatda kursda qatnashgan ishtirokchilar sonidan kelib chiqib tuzilgan va tomonlar o‘rtasida tasdiqlangan hisob varaq-faktura va bajarilgan ishlar dalolatnomasi asosida amalga oshiradi.

3.5. Yakuniy to‘lovlari hisob varaq-faktura g‘aznachilikdan tasdiqlangan kundan e’tiboran 3 bank ish kuni davomida amalga oshiriladi.

#### **4. Majburiyatlarni bajarish muddati**

4.1. “Bajaruvchi” ushbu shartnomaning 1.1-bandida belgilangan majburiyatlarni 30% to‘lov amalga oshirilgandan so‘ng o‘quv kurslari belgilangan grafik asosida 3 (uch) oy davomida bajarishi shart.

4.2. Shartnoma 2022 yil 31 dekabrga qadar amalda bo‘ladi.

#### **5. Tomonlar majburiyatları**

##### **5.1. “Bajaruvchi”ning majburiyatları:**

5.1.1. O‘quv kurslarini “Buyurtmachi”ga ushbu shartnoma talablariga, davlat standartiga hamda boshqa amaldagi talablarga muvofiq holda belgilangan muddatda bajarib beradi.

5.1.2. Shartnomada belgilangan boshqa parametrlardan chekinish natijasida yuzaga kelgan kamchiliklarni “Bajaruvchi” o‘z kuchi va o‘z mablag‘lari hisobidan bartaraf etadi.

5.1.3. O‘quv kursi ishtirokchilarining qatnashishi (davomati) hamda uy vazifalari bajarilishini muntazam ravishda nazorat qiladi va ishtirokchilarining qatnashishi to‘g‘risidagi kunlik ma’lumotlarni . “Buyurtmachi”ga taqdim qiladi.

5.1.4 O‘quv kursi ishtirokchilarining o‘zlashtirishini nazorat qilish maqsadida kurs davomida 2 marotaba test o‘tkazadi.

5.1.5. O‘quv kursi davomida “Speaking club” tarzida ham mashg‘ulotlarni amalga oshiradi.

5.1.6. O‘quv kursi yakunida test o‘tkazish hamda testdan muvaffaqiyatli o‘tgan ishtirokchilarga tegishli sertifikat taqdim qiladi.

5.1.7. O‘quv kursi ishtirokchilari bo‘yicha hisobot (feedback) beradi.

5.1.8. Har bir guruhdagi ishtirokchilar sonini 15-20 kishidan oshirmaydi.

5.1.9. O‘quv kursidagi o‘quv mashg‘ulotlarini haftada 2 marotaba 2 soatdan xodimlarning ishdan keyingi bo‘sh vaqtida o‘tkazadi.

5.1.10. O‘quv kursi mashg‘ulotlarini sifatli hamda zamon talablariga mos ravishda olib boradi.

5.1.11.“Bajaruvchi” O‘quv kurslarini “Buyurtmachi”ning yuridik manzilidagi binoda tashkillashtiradi va o‘tkazib beradi.

5.1.12. Narxning haqiqiy xarajatlardan kelib chiqqanligiga “Bajaruvchi” bevosita javob beradi.

##### **5.2. “Buyurtmachi”ning majburiyatları**

5.2.1. “Buyurtmachi” mazkur shartnoma shartlarida belgilangan xizmatlar uchun shartnomada ko‘rsatilgan muddatda to‘liq bajarilgandan so‘ng to‘lovnvi amalga oshiradi.

5.2.2. “Buyurtmachi” mazkur shartnoma asosida tashkil etilgan o‘quv kurslarida amalda qatnashgan ishtirokchilar sonidan kelib chiqqan holda to‘lovnvi amalga oshiradi. Basharti ishtirokchilardan ayrimlari turli sabablarga ko‘ra (tizimdan ishdan ketishi, boshqa hududga ishga o‘tishi yoki xizmat safariga yuborilishi va boshqa shu kabi holatlar) kursni oxirigacha yetkaza olmay qolgan taqdirda o‘quv kursi uchun haq haqiqatda o‘qitilgan kunlar uchun to‘lanadi.

#### **6. Tomonlarning javobgarligi**

6.1. “Bajaruvchi” shartnomada belgilangan xizmatlarni o‘z vaqtida yetkazib bermagan taqdirda, har bir kechiktirilgan kalendar kun uchun ko‘rsatilgan xizmat bahosining 0,5% miqdorida jarima to‘laydi, lekin jarima miqdori umumiy qiymatning 50% dan oshib ketmasligi lozim.

6.2. “Buyurtmachi” o‘z vaqtida to‘lovlarni “Bajaruvchi” hisobraqamiga o‘tkazib bermagan taqdirda, har bir kechiktirilgan bank ish kuni uchun o‘tkazilmagan to‘lovlar bahosining 0,4% miqdorida jarima to‘laydi, lekin jarima miqdori o‘tkazilmagan to‘lovlar umumiy qiymatining 50% dan oshib ketmasligi lozim.

6.3. Shartnomaga rioya qilmagan tomon amaldagi qonunlarga ko‘ra yetkazilgan zararni qoplashni o‘z zimmasiga oladi.

6.4. Penya yoki jarima to‘lanishi tomonlar majburiyatlarini bajarish yoki huquq buzilishlarini bartaraf qilishdan ozod qilmaydi.

## **7. Fors-major holatlari**

7.1. Tomonlardan hech biri boshqa tomonning oldida shartnoma bo'yicha olgan majburiyatlarini tomonlarning erki va istagidan tashqari paydo bo'lgan va ularni oldindan ko'ra bilish yoki bartaraf etish mumkin bo'lman holatlarda bajarmaganliklari uchun javobgar bo'lmaydi. Bunday hollar yuzaga kelgan taqdirda tomonlar 2 (ikki) kunlik muddat ichida yozma xabardor qilinishi shart.

## **8. Nizolarni hal qilish tartibi**

8.1. Tomonlar o'rtasida shartnoma bo'yicha yoki u bilan bog'liq holda paydo bo'ladigan barcha nizolar yoki kelishmovchiliklар o'zaro muzokaralar yo'li bilan hal qilinadi.

8.2. Kelishmovchiliklарni muzokaralar yo'li bilan hal qilinmagan taqdirda, ular qonun hujjatlarida belgilangan tartibda iqtisodiy sud tomonidan ko'rildi.

## **9. Shartnomaga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish tartibi**

9.1. Shartnomaga kiritiladigan har qanday qo'shimcha va o'zgartirishlar yozma ravishda rasmiylashtirilib, har ikkala tomon imzolagan hollardagina qonuniy kuchga ega bo'ladi.

9.2. Shartnomani muddatidan oldin bekor qilish tomonlarning kelishuvi bo'yicha yoxud O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha yetkazilgan zararlarni qoplash yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin.

9.3. Shartnomani bekor qilishga qaror qilgan tomon bu haqda ikkinchi tomonga ikki oy oldin yozma xabarnoma yuboradi.

## **10. Boshqa shartlar**

10.1. Shartnoma imzolangan kundan boshlab qonuniy kuchga kirgan hisoblanadi.

10.2. Shartnoma bir xil kuchga ega bo'lgan ikki nusxada tuzilgan.

## **11. Tomonlarning yuridik manzili va to'lov ma'lumotlari**

### **«Buyurtmachi»**

#### **O'zbekiston Respublikasi**

Moliya vazirligi huzuridagi moliya organlari  
hamda budget tashkilotlarining moliya-hisob  
bo'linmalari xodimlarini tayyorlash va qayta  
tayyorlash O'quv markazi

Toshkent sh. Mirzo Ulug'bek tumani,  
Darxontep 7  
Telefon: 239-19-18,  
Indeks: 100052  
Sh/x: 401010860262667096200092001  
MFO 00014, STIR 300529638, OKED 85590  
Moliya vazirligi G'aznachiligi  
X/r: 23402000300100001010

XKKM Markaziy bank Toshkent sh.,  
Bosh boshqarmasi

MFO: 00014, STIR: 201122919,

Direktor

I. Xamidova

Bosh buxgalter

S. Mirzayev




### **«Bajaruvchi»**

"UNIVERSE LANGUAGE GROUP"  
nodavlat ta'lim muassasasi

Toshkent sh. Chilonzor tumani, Bunyodkor  
ko'chasi, 1-uy  
Telefon: +99890 355 08 09  
Indeks:  
H/r: 2020 8000 6007 5460 3001  
ATB "Agrobank" Toshkent shahar filiali.  
MFO 00394  
STIR 304 779 332

OKED 85590



T. Irbulatov

013079



Yuridik shaxs (tadbirkorlik subyektini) davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida  
**GUVOHNOMA**

Ushbu bilan Tadbirkorlik subyektlari yagona davlat reyestriga

"UNIVERSE LANGUAGE GROUP" Nodavlat ta'lif muassasasi

(Yuridik shaxsning - tadbirkorlik subyeklining tashkiliy-huquqiy shakli ko'rsatilgan holdagi to'liq nomi)

"UNIVERSE LANGUAGE GROUP" NTM

(Yuridik shaxsning qisqartirilgan nomi)

Tashkil etish (qayta tashkil etish, boshqa ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlarini o'zgartirish)

29.03.2017

013079-08

ro'yxat raqamli yozuv kiritilganligi tasdiqlanadi.

(Sana, oy (so'z bilan), yil):

Soliq to'lovchining identifikasiya raqami (STIR):

304779332

Tashkiliy-huquqiy  
shakli:

Nodavlat ta'lif muassasasi

Joylashgan joyi:


Toshkent shahri, Chilonzor tumani, BUNYODKOR KO'CHASI, 1-UY,

Guvochnoma:

Toshkent shahri, Chilonzor tumani, DAVLAT XIZMATLARI  
MARKAZI

tomonidan  
berilgan

(Ro'yxatdan o'tkazuvchi organning to'liq nomi):





ГОСУДАРСТВЕННАЯ ИНСПЕКЦИЯ ПО НАДЗОРУ ЗА КАЧЕСТВОМ ОБРАЗОВАНИЯ ПРИ  
КАБИНЕТЕ МИНИСТРОВ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

# ПОДТВЕРЖДЕНИЕ

о получении уведомления

№ 029296

"UNIVERSE LANGUAGE GROUP" NTM

Уведомление о начале или прекращении внешкольной образовательной  
деятельности

ПОРЯДКОВЫЙ НОМЕР РЕЕСТРА ПОДТВЕРЖДЕНИЙ

X-174726

ИДЕНТИФИКАЦИОННЫЙ НОМЕР НАЛОГОПЛАТЕЛЬЩИКА (ИНН)

304779332

ФАКТИЧЕСКИЙ (ПОЧТОВЫЙ) АДРЕС


город Ташкент, Чиланзарский район, BUNYODKOR KOCHASI, 1-UY

АДРЕС ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

город Ташкент, Чиланзарский район, Тошкент шахри, Чилонзор, Бунёдкор шох кўчаси, 1 УЙ

УПОЛНОМОЧЕННЫЙ ОРГАН

Государственная инспекция по надзору за качеством образования при Кабинете Министров  
Республики Узбекистан



07.06.2022

ДАТА ПРЕДСТАВЛЕНИЯ



**Вид деятельности**

Негосударственное внешкольное образование, включая деятельность по преподаванию иностранных языков

**Образовательные направления**

Другие направления: □

Илмий туркум: Английский язык, Русский язык



YASHASH JOYI / ADDRESS

YASHASH JOYI / ADDRESS

Toshkent shahar Mirobd tumeni  
DOIMIY PROPIKA QILINDI

OYBEK



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

FAMILYASI  
IRBULATOV

JINSI  
ERKAK

ISHI  
TIMUR  
OYASNING ISMI  
ILDAROVICH

TUG'ilGAN JONI  
29 04 1984  
MILLATI  
TATAR

KUTOMONIDAN BEERGAM  
TOSHKENT SHAHAR MIROBD  
TUMANI LIB

SHAXSIY IMZO / HOLDER'S SIGNATURE



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI / REPUBLIC OF UZBEKISTAN

PASPORT PASSPORT | TURI / TYPE DANLAT KODI / COUNTRY CODE | PASPORT RAQAMINI / PASSPORT No.  
P UZB AA5164553

FAMILYASI / SURNAME  
IRBULATOV

ISMI / GIVEN NAMES  
TIMUR

FUQROLIQ / NATIONALITY  
UZBEKISTAN

TUG'ilGAN SANASI / DATE OF BIRTH  
29 04 1984

JINSI / SEX  
M TASHKENT

BERENGAN SANASI / DATE OF ISSUE  
17 04 2014

AMAL ORELISH MODDANI / DATE OF EXPIRY  
16 04 2024

PERSONAL LASHTIRISH ORGANI / AUTHORITY  
STATE PERSONALIZATION  
CENTRE

<UZBIRBULATOV<<TIMUR<<<<<<<<<<<<<<<

AA51645537UZB8404291M24041633290484653001506

“Tasdiqlayman”

O‘zbekiston Respublikasi

Moliya vazirligi huzuridagi

O‘quv markazi direktor o‘rinnbosari

Xarid komissiya raisi

J. Hamidullayev



**“O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining markaziy apparatini barcha departament va mustaqil bo‘limlari, vazirlik tarkibidagi tashkilotlarning tegishli xodimlarini xorijiy (ingliz) tillar bo‘yicha o‘quv kurslarini tashkil etish” bo‘yicha 2022-yil 12-sentabr kuni №144408-sonli lot bo‘yicha www.etender.uzex.uz axborot portalida elektron tartibda o‘tkazilgan hamda tizim tomonidan onlayn baholangan tanlash bayonnomasining muhokamasi to‘g‘risida xarid komissiyasi yig‘ilishining**

**BAYONNOMASI №3**

Toshkent shahri

2022-yil 15-sentabr

Raislik qildi:

Xarid komissiya raisi J. Hamidullayev

Qatnashdilar:

komissiya a’zolari (ro‘yxati bo‘yicha)

A. Akramov, B. Atadjanov, R. Bakiyeva, Sh. Qurbonov, Sh. Mirzaxidova,  
A. Babayev

**Kun tartibi:**

1. Moliya vazirligi huzuridagi moliya organlari hamda budget tashkilotlarining moliya-hisob bo‘linmalari xodimlarini tayyorlash va qayta tayyorlash O‘quv markazi (keyingi o‘rinlarda- O‘quv markazi) Xarid komissiyasi tomonidan o‘tkazilgan “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining markaziy apparatini barcha departament va mustaqil bo‘limlari, vazirlik tarkibidagi tashkilotlarning tegishli xodimlarini xorijiy (ingliz) tillar bo‘yicha o‘quv kurslarini tashkil etish” bo‘yicha 2022-yil 12-sentabr kuni №144408-sonli lot bo‘yicha www.etender.uzex.uz axborot portalida elektron tartibda o‘tkazilgan hamda tizim tomonidan onlayn baholangan tanlash bayonnomasini muhokama qilish.

Mazkur masala yuzasidan Xarid komissiyasi J. Hamidullayev so‘zga chiqib quyidagilarni ma’lum qildi:

O‘quv markazi Xarid komissiyasi tomonidan o‘tkazilgan “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining markaziy apparatini barcha departament va mustaqil bo‘limlari, vazirlik tarkibidagi tashkilotlarning tegishli xodimlarini xorijiy (ingliz) tillar bo‘yicha o‘quv kurslarini tashkil etish” bo‘yicha 2022-yil 12-sentabr kuni №144408-sonli lot bo‘yicha www.etender.uzex.uz axborot portali orqali uchta ishtiropchi “UNIVERSE LANGUAGE GROUP” nodavlat ta’lim muassasasi, “YOUR FIRST STEP” MCHJ va “KVARTET EXPRESS SAVDO PREMIUM” MCHJlar tomonidan taqdim qilingan qilingan takliflar o‘rganib chiqilganda, “KVARTET EXPRESS SAVDO PREMIUM” MCHJ mazkur tanlash talablariga muvofiq tanlash me’zoqlarida so‘ralgan ma’lumotlar taqdim qilmaganligi sababli Xarid komissiyasi tomonidan tanlashdan

chetlashtirilganligini, tanlash qolgan "UNIVERSE LANGUAGE GROUP" nodavlat ta'lim muassasasi va "YOUR FIRST STEP" MCHJlar o'ttasida o'tkazilganligini hamda mazkur lot bo'yicha tanlash ishtirokchilarining takliflari www.etender.uzex.uz tizim tomonidan onlayn baholash natijasiga ko'ra "UNIVERSE LANGUAGE GROUP" nodavlat ta'lim muassasasi g'olib bo'lganligi to'g'risida ma'lumot berib o'tdi.

Shuningdek, 2022-yil 12-sentabr kuni mazkur №144408-sonli lot bo'yicha www.etender.uzex.uz axborot portalida o'tkazilgan tanlash natijalari bayonnomasi O'zbekiston Respublikasining 22.04.2021 yildagi O'RQ-684-son "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunining 62-moddasiga binoan davlat xaridlarining elektron tizimiga muhokama qilish uchun ikki ish kuniga joylashtirilganligini, muhokamaga qo'yilgan masala yuzasidan 2 (ikki) ish kuni davomida mazkur tanlashda qatnashgan ikkita ishtirokchi "UNIVERSE LANGUAGE GROUP" nodavlat ta'lim muassasasi, "YOUR FIRST STEP" MCHJ hamda tanlashdan chetlashtirilgan "KVARTET EXPRESS SAVDO PREMIUM" MCHJ tomonidan hech qanday e'tirozlar bildirilmaganligini hamda tanlash natijalari bo'yicha birorta ham murojaat va e'tirozlar kelib tushmaganligini qayd etdi.

Shuningdek, xarid komissiyasi a'zolarining mazkur №144408-sonli lot ishtirokchilari bilan affillanganlik xususiyatiga ega aloqalar mavjud emasligi, O'zbekiston Respublikasining 22.04.2021 yildagi O'RQ-684-son "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunining 23-moddasiga ko'ra, ishtirokchi va uning affillangan shaxsi mazkur №144408-sonli lotda ishtirok etmayotganligini, ma'lumotlar www.stat.uz sahifasi orqali tekshirilganligini aytib o'tdi.


Yuqoridagilardan kelib chiqib, Xarid komissiyasi

**QAROR QILADI:**

1. O'quv markazi Xarid komissiyasi tomonidan o'tkazilgan "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining markaziy apparatini barcha departament va mustaqil bo'limlari, vazirlik tarkibidagi tashkilotlarning tegishli xodimlarini xorijiy (ingliz) tillar bo'yicha o'quv kurslarini tashkil etish" bo'yicha 2022-yil 12-sentabr kuni №144408-sonli lot bo'yicha www.etender.uzex.uz axborot portalida elektron tartibda o'tkazilgan tanlash natijasiga ko'ra "UNIVERSE LANGUAGE GROUP" nodavlat ta'lim muassasasi tanlov g'olib deb topilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.
2. O'quv markazi mazkur tanlash natijasi bo'yicha "UNIVERSE LANGUAGE GROUP" nodavlat ta'lim muassasasi bilan belgilangan tartibda shartnoma tuzish tavsiya etilsin.
3. Ushbu yig'ilish qarori ijrosini nazorat qilish Xarid komissiyasi raisi J. Hamidullayev zimmasida qolishi belgilandi.


**Xarid komissiya a'zolari:**

A. Akramov




(imzo)

B. Atadjanov



(imzo)

Sh. Mirzaxidova




(imzo)

R. Bakiyeva



(imzo)

Sh. Qurbonov




(imzo)

A. Babayev



(imzo)

**Xarid komissiyasi kotibi:**



**N. Yuldashev**